

## ALISHER NAVOIYNING “ARBAIN” ASARIDA KOMIL INSON VASFI

*Hasanboy Voxidov*

*Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti magistranti*

Ushbu maqolada ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodida, xususan, uning “Arbain” asarida komil inson g‘oyasining badiiy va falsafiy talqini tadqiq etilgan. Maqolada arab tilidagi “arbain” (qirq hadis) an‘anasining tarixiy ildizlari, Navoiy asarining yozilish omillari hamda undagi axloqiy-ma‘naviy qarashlar tahlil qilinadi. Shuningdek, asardagi hadislar sharhi Fuzuliy ruboiylari hamda Aziziddin Nasafiy, Ibn Arabiy kabi tasavvuf namoyandalarining komil inson konsepsiyalari bilan qiyosiy jihatdan o‘rganilgan. Navoiyning jamiyat, ilm va nafs pokligi borasidagi gumanistik qarashlari maqolaning bosh g‘oyasini tashkil etadi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, Arbain, qirq hadis, komil inson, tasavvuf, nafs pokligi, Fuzuliy, Aziziddin Nasafiy, gumanizm, axloq.

Alisher Navoiy Sharq adabiyoti va falsafiy tafakkurida o‘chmas iz qoldirgan ulkan siymodir. Uning bizga qoldirgan boy va serqirra merosini yo‘nalishiga ko‘ra diniy-falsafiy, axloqiy, ilmiy-tarixiy va badiiy guruhlariga ajratish mumkin. So‘z mulkining sultoni o‘z ijodida insonning axloqiy, ma‘naviy va fikriy kamoloti masalasiga alohida e‘tibor qaratgan bo‘lib, bunda har bir janrning talabi, tabiati va ifoda usullarini teran hisobga olgan holda qalam tebratgan.

Musulmon Sharqi mumtoz adabiyotida “Arbain” (qirq hadis) yozish azaliy an‘analardan biri hisoblanadi. Arab tilidagi “arbain” so‘zi “qirq” ma‘nosini anglatib, sahih hadislar mazmunini she‘riy vaznda, aniqrog‘i, bir ruboiy doirasida aniq va lo‘nda ifodalash san‘atidir. Bunday asarlar, eng avvalo, oddiy xalq vakillari hadislar mag‘zini oson tushunishi va xotirasida uzoq saqlab qolishi uchun xizmat qilgan. Zero, Navoiy yashagan davrda ham butun ulus, xususan oddiy xalq ommasi arab tilini mukammal bilmagan, shu bois bu dildagi mo‘tabar manbalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri anglash imkoniga ega bo‘lmagan.

Alisher Navoiy qalamiga mansub “Arbain” asari uning ustozlari va do‘sti Abdurahmon Jomiyning shu nomli asari kabi 1481-yilda yozib tugatilgan. Mazkur asarning yozilishiga fundamental diniy va falsafiy omillar mavjud bo‘lib, u ulamolarning “etarli bilimga ega kishilar hadislar ma‘nosini naql qilishi mumkin” degan qarashlariga asoslangan. Shoir o‘zbek tilining beqiyos imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda ilohiy va falsafiy g‘oyalarni xalqchil tilga ko‘chirdi. Navoiy ijodida “Hazoyin al-maoniy” devonlarida muhabbat, insoniylik, vatan, axloq, ilm, adolat va kamtarlik ulug‘langan bo‘lsa, uning diniy-ma‘rifiy asarlari sirasiga kiruvchi “Arbain”

va “Munojot” kabilar jamiyatni yuksak odob-axloqqa chorlash, yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytarish missiyasini bajargan.

Tasavvuf adabiyotida “komil inson” tushunchasi asrlar davomida bahs va munozaralarga sabab bo‘lgan va bu haqda maxsus risolalar bitilgan. Jumladan, Sayyid Abdulkarim Jiloniy va Aziziddin Nasafiy (XIII asr)larning “Insoni komil” nomli asarlari bu yo‘nalishdagi dastlabki fundamental manbalardir. Biroq, termin sifatida “komil inson” tushunchasini tasavvuf ilmiga birinchi marta “Shayxi Kabir” nomi bilan mashhur bo‘lgan Muhyiddin ibn Arabiy (1165–1240) kiritgan. Ibn Arabiy talqiniga ko‘ra, komil insonning yerdagi eng oliy va mutloq timsoli Hazrati Payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamdir. Ul zotning vujudida aqliy, ruhiy kamolot hamda dunyoviy va ilohiy bilimlar mukammal ravishda jamlangan.

Aziziddin Nasafiy esa komil insonga quyidagicha ta’rif beradi:

“Bilgilki, Komil inson deb shariat, tariqat va haqiqatda yetuk bo‘lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi uch narsa kamolga yetgan bo‘lsin: yaxshi fe‘l, yaxshi axloq va maorif”.

Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg‘on, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan ezgu ishlarga tayyor turadi. Nasafiy fikricha, tariqat yo‘liga kirgan soliklar vazifasining bosh maqsadi ushbu uch fazilatni egallashidir. Kimki o‘zida shu sifatlarni kamol toptira olsa, u yuksak darajaga erishadi.

Nasafiyning mazkur ta’rifidan ikkita muhim xulosa kelib chiqadi. Birinchisi — olim nazarida komil inson hayotdan ajralgan allaqanday mavhum zot emas, balki real odamdir. Yaxshi sifatlarni egallab borgan har bir shaxs shu martabaga ko‘tarila oladi. Ikkinchisi — komil inson martabasi tariqat va riyozat yo‘li bilan qo‘lga kiritiladigan yuksak ma’naviy darajadir.

Taniqli olim M. Muhiddinov ham “Komil inson — adabiyot ideali” asarida komillikning oliy namunasi sifatida anbiyo va avliyolarni ko‘rsatadi, ulardan keyingi o‘rinlarda esa murshidlar, orif va solihlar, darvesh-so‘fiylar turishini ta’kidlaydi. Professor N. Komilov ham tasavvufiy manbalarga tayanib, komil insonni zohiriy va botiniy ilmlarni mukammal egallagan, ko‘ngil ko‘zgusi g‘uborlardan musaffo bo‘lgan zot deb ta’riflaydi.

Alisher Navoiy “Arbain” asari orqali insonlarni o‘zlaridagi salbiy illatlarni yo‘qotishga va qalbni poklashga chaqiradi. Buni asarda keltirilgan mashhur hadis sharhi misolida yaqqol ko‘rish mumkin:

Hadis:

"لا يؤمن أحدكم حتى يحب لأخيه ما يحب لنفسه"

(Sizlardan biringiz o‘zi yaxshi ko‘rgan narsasini birodariga ham yaxshi ko‘rmaguncha haqiqiy mo‘min bo‘la olmaydi).

Bu yerda “mo‘min bo‘la olmaydi” deyilganda, iymonning komillik va yetuklik darajasiga erisha olmaslik nazarda tutilgan. O‘zi istagan sog‘lik, tinchlik, mol-dunyo, ilm va farovonlikni o‘zgalarga har taraflama ravo ko‘rish Islomdagi eng oliy axloqiy mezonlardan biridir. Bu qoida nafaqat moddiy narsalarda, balki ruhiy, ma‘naviy va diniy fazilatlarda ham amal qiladi. Tasavvuf ahli buni qalb pokligi va ixlos o‘lchovi deb biladi.

Hazrat Navoiy ushbu hadis mazmunini xalqchil va lirik tilda shunday ifodalaydi:

Mo‘min ermastur ulki, iymondin Ro‘zg‘orida yuz safo ko‘rgay, Toki qardoshig‘i ravo ko‘rmas, Nekim o‘z nafsiga ravo ko‘rgay.

Ulug‘ mutafakkirning ushbu to‘rtligi jamiyatdagi ijtimoiy birdamlik va insonparvarlikning yuksak namunasi. Xuddi shu hadisni buyuk shoir Fuzuliy ham o‘ziga xos tarzda ruboiyga solgan:

Mo‘min o‘lmaz kishi haqiqat ila, Dutmayincha tariqi tarki havo. Har ne o‘z nafsina ravo ko‘rsa, Yoru gardasha ko‘rmayincha ravo.

Momin kishi haq yo‘lida chin bo‘lmaguncha, havo nafsi (istak va mayl) yo‘lini tark etmaguncha, haqiqatni topolmaydi, komil bo‘lolmaydi. Fuzuliy bu baytda komil mo‘minning mezonini ko‘rsatadi: uning fikricha, mo‘min faqat quruq ibodat bilan emas, balki nafsini poklab, havo nafsni tark etish orqali mukammallikka erishadi. Navoiy va Fuzuliyning qarashlarida mushtaraklik shundaki, har ikki adib ham inson o‘zgalardardiga darmon bo‘lishi va nafsini jilovlashi lozimligini uqtirishadi.

Navoiy talqinida komil inson konsepsiyasi bir necha muhim ustunlarga tayanadi. Birinchidan, shoir komil insonni tashqi ko‘rinishi bilan emas, aynan ichki olami va axloqiy fazilatlari orqali belgilaydi. Ikkinchidan, u insonni boshqalarga nisbatan mehr-muhabbatli bo‘lishga, ijtimoiy mas‘uliyatni his etishga chaqiradi. Navoiy fikricha, komil shaxs nafaqat o‘zini tarbiyalaydi, balki jamiyat a‘zolarini ham yaxshilik yo‘liga boshlaydi. Uchinchidan, u ilmga intilish va ma‘naviy yuksalishni bir-biri bilan chambarchas bog‘laydi. Ilm — insonning ichki olamini va axloqini shakllantiruvchi, haqiqatni izlashga yordam beruvchi asosiy vositadir.

Alisher Navoiyning butun hayoti va ijodiy faoliyati insoniyatni nafsini yengib, yuksak ma‘naviy kamolot sari intilishga qaratilgan. Uning “Arbain” asari hadislar hikmati asosida insonni poklikka, mehr-shafqatga va ijtimoiy adolatga chorlovchi bitmas-tuganmas manbadir. Shoirning fardlari va to‘rtliklari ham komil axloq sifatlarini ochib beruvchi haqiqiy durdonalardir.

Mutafakkir qarashlariga ko‘ra, komil inson — faqat o‘zi uchun emas, balki jamiyat va atrofdagilar baxt-saodati uchun yashovchi, eliga naf keltiradigan fidoyi shaxsdir. Agar jamiyat a‘zolari ushbu ma‘naviy durdonalardan bahramand bo‘lib, qanoat, iymon va diyonat kabi fazilatlarni o‘zlarida shakllantirsalar, hayot farovon,

yurt tinch va osoyishta bo‘ladi. Navoiy an‘analari va uning axloqiy mezonlari insoniyat mavjud ekan, o‘zining barhayotligi va dolzarbligini aslo yo‘qotmaydi.

### Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yxati

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar. – IV devon. Nashrga tayyorlovchi O. Davlatov. – Toshkent: Tamaddun, 2011.
2. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. – To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik, 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011.
3. Navoiy, A. Arba‘in (Qirq hadis). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1991.
4. Mamatqulova, N. Alisher Navoiyning “Arba‘in” asariga qisqacha sharh // Tadqiqot maqolasi. – 2021.
5. Ochilova, M. Alisher Navoiy “Arba‘in” asarining falsafiy tahlili // Tamaddun Nuri ilmiy jurnali. – 2024. – № 2. – B. 45–52.
6. Xoldorova, G. Navoiyning komil inson timsolini yaratish mahorati // Zenodo elektron ilmiy platformasi. – 2023.
7. Ravshanova, Sh. Alisher Navoiy ijodida komil inson haqidagi qarashlarda insonparvarlik va ilmga intilish // Scientific Journal. – 2025. – № 1. – B. 20–25.
8. Mo‘minova, M. Tasavvuf adabiyotida komil inson tushunchasi // Cyberleninka. – 2023.
9. Dehqonov, A. Arba‘innavislik an‘anasi va Muhayyir adabiy faoliyati // Golden Scripts jurnali. – 2020. – № 1. – B. 33–40.
10. Alisher Navoiy ijodida barkamol, komil inson haqidagi gumanistik qarashlar talqini // ResearchGate. – 2024.
11. Alisher Navoiy fardlarida komil axloq masalasi // Academicsbook konferensiya to‘plami. – 2023.
12. Arba‘in va arba‘innavislik an‘anasi (Alisher Navoiy) // Yangi izlanuvchi jurnali. – 2022. – № 3. – B. 27–31.